

1

Ey dil, shod bo'l, yaxshi-yomon o'tgusidir,  
 Bir kuni qulni begumon o'tgusidir.  
 Bor ne'matiyu quvonchi bu dunyoning  
 Umring kabi solgancha suron o'tgusidir.

2

Sham shu'iasi tushmish sharobga bu kecha,  
 Sust ketdi dilim mening kabobga bu kecha,  
 Qo'y uyquni, ber qulq rubobga bu kecha,  
 Obod ne bor, yuz tutar xarobga bu kecha.

3

Gul ochdi yuzin, biz-da ko'ngil ochgaymiz,  
 May shavqi bilan g'am qo'lidan qochgaymiz.  
 Gul qovjiragay o'tsa bahor, vaqt yetsa,  
 Bizlar-da ajal sharbatini ichgaymiz...

4

Imkon bor ekan, topib yaqin ulfatni,  
 Bog'-rog'lar aro joyiga qo'y ishratni.  
 To bog'lamayin qo'l u oyog'ingni ajal,  
 Sol ishga, uvol qilma kuchu quvvatni!

5

Gul jilva qilib, yashnadi bo'ston, ey do'st,  
 Sayr ayla g'animatda guliston, ey do'st;  
 Xar narsani xohlasang - muhayyo bunda,  
 Qil aysh ila ishratni bearmon, ey do'st!

6

Gul to'nini chok qilibdi - kirsam boqqa,  
 Ko'r: g'unchanli yel solibdi ne qiynoqqa.  
 May ich, yel esar sensiz-u mensiz ham ko'p,  
 Biz-chi, yotamiz boshni qo'yib tuproqqa.

7

Dunyo to qiyomat bevafo bo'lgaydir,  
 Haq bandasiga ishi jafo bo'lgaydir.  
 Ming yil yashasang-da Nuh kabi dunyoda,  
 Bir kun seni jisming-da fano bo'lgaydir.

8

Ey dil, chekasan jahon g'amini tokay?  
 Kelgan o'sha labga jon g'amini tokay?  
 It, cho'chqaga kon bu iflos manzil aro -  
 Chekmoq do'zaxiy taom g'amini tokay?

9

Ey dil, bu tuban dunyo uchun xor bo'lma,  
 Murdoriga karkas[1] qushidek yor bo'lma.  
 Dunyoga jaxrn xalqi giriftor bo'ldi,  
 Sen o'zni tani - unga giriftor bo'lma.

10

Tokay bu jahon bizga qilar ranju sitam?  
 Qiynaydi qachongacha xayoli ko'nu kam?  
 Hech narsaga arzimaydi har ikki jahon,

Har narsa uchun muncha chekarmiz nega g'am?

11

Ey dil, bu xatarli yo'lida misli bodsan,  
Osmonu zamin tashvishidan ozodsan.  
Oy nur sochadi - to'yib-to'yib boq ko'kka,  
Besh kun bu hayot zavqi bilan to shodsan.

12

Dil bo'ldi gunohdan siyoh, ey soqiy,  
Keltirdi figon, dodga gunoh, ey soqiy,  
Tavba sari tuggil endi roh, ey soqiy,  
Umr yetdi nihoyasiga, oh, ey soqiy.

13

Na yangi bo'lar qayta bu ko'hna jahon,  
Na xohishiga ko'ra qilar ish inson.  
Ey soqiy, agar may ber-u, gar berma sira,  
Sirlar bari sirligicha qolgay pinhon.

14

Sultonsan mayxo'rga mudom, ey soqiy,  
Biz bog'lab bel, senga g'ulom, ey soqiy.  
G'am dastidan o'ldik, jon bag'ishla endi -  
Bizlarga tutib bir-ikki jom, ey soqiy.

15

Ishqing g'ami kimda bu qadar bo'lgaydir,  
Durdakashu[2] rindu darbadar bo'lgaydir.  
Lavh uzra yozishdi: buni(ng) bosh-oxiri yo'q -  
Ul har kuni yuz bora batar bo'lgaydir.

16

Ey do'stlar, ajal fe'lini xo'b bilgaysiz,  
Har kun necha bor o'zni rizo qilgaysiz.  
Vaqt borida jam bo'ling, keyin ming istab,  
Hech birga bo'lollmassiz-u, soch yulgaysiz.

17

Qay kun meni ishqiga duchor keltirdi,  
Besabru qaroru bemador keltirdi,  
Tasbehu ridoyu zunnor keltirdi,  
Jon o'rniga, ko'r, nelarni yor keltirdi?

18

Ishqingda dinimni yangilab olgim bor,  
Tarsobachaning do'sti bo'lib qolgim bor.  
Zunnorni qavat-qavat belimga bog'lab,  
Dastorni sharobga ayribosh qilgim bor.

19

Yor ishqqi tilar: bedilu bedin bo'lsam,  
Xummoru xarobotiyu Majnun bo'lsam.  
Devonaligim tufayli orzu qilaman:  
Eng oqilu men - barchadan ustun bo'lsam!

20

Zohidligu taqvodorligim o'tdi hisob,

Endi menu yangi dard ila ko'hna sharob.  
Kun-kecha din ichra avvalu oxir edim,  
Bu kun menga avvalu oxir dayri xarob.

21

Shu sallani tashvishi meni ko'p qiynar,  
Jon tinchir edi sharobga almashsam gar.  
Kissamda agarchi bir chaqam yo'q, ammo,  
Har ikki jahon chimchilog'imda o'ynar.

22

Bu kecha sochar nur oy guliston ichra,  
Bu kecha ochar yuzin gul bo'ston ichra.  
Gul rangli sharobni quy, bo'larmi uxbab,  
Bu kecha charogon bu shabiston[3] ichra?!

23

Biz bu kecha mayxona aro bo'ldik jam,  
Tinglab nayu chang, qolmadi dillarda g'am.  
Har ikki jahonni unutib, bo'ldik shod,  
Hamroh edi bizga mayu ma'shuqayu sham'.

24

Tog' orqasidan yuzini ko'rsatdi kun,  
Shod ayla diling, har nima bo'lsa-bo'lsin!  
Umringki vafo qilmasa, ne foydasi bor -  
Har qancha uying oltinu zarga to'lsin?!

25

May tut, sanamo, dil g'amu hasratga to'la,  
Yuvsin u jahon qayg'usini bir yo'la.  
Tez bo'l! Qara: maysa chiqqa keldi yerdan,  
Sen kirmay yerga jomni jomga ula!

26

Atrofga boqib, yurak-yurakdan ilg'a:  
Yer misli behisht, oqadi tog'dan jilg'a.  
Sahro-da behisht kabi, jahannamni unut,  
Hurdek yor ila kez bu behishtni birga!

27

Qo'zg'al, qani, gul kissasidan zar to'kadi,  
Oftob-da muvofiq unga gavhar to'kadi.  
Zar bo'lsa agar, qum kabi to'k-u, may ich,  
Bir kun seni-da falak muqarrar to'kadi...

28

Gul jilvasi gulshan ichra paydo bo'ldi,  
Bulbul tili yechildi-yu, shaydo bo'ldi.  
Billur kabi jomga quy qizil may, bog' ham -  
Yomg'ir suvidan misoli miyno[4] bo'ldi.

29

May tut, qani, jono, toza gul ochildi,  
Bulbul tilidan so'z guhari sochildi:  
Yer qa'rida yolg'iz yotishin kim bilsa,  
Yolg'iz o'tirishni u kishi bas qildi.

30

Bas, qancha davom etgusi bu bedodlik?  
 Kunlar quvishar tekkanidek ozodlik.  
 Quy mayni hayallamay, umr o'tmoqda -  
 Qasrat ila bilmay nima ayshu shoddik.

31

Ko'p izladi-yu, topmadi dil bir hamdam,  
 Bor intilish-u orzusi topdi barham.  
 Takdir ishiga tan ber-u, may ich, yillar -  
 Ming ista, buyurmagan edi shu dam ham.

32

Ishq ichra ulug'ligim kichiklikka garov,  
 Bu yuzni(ng) qizilligi sariqlikka garov.  
 Din sof mayining qatrasи ham yo'q menda,  
 Sajjodani durdaga qilay tikka garov!

33

Dunyo degani aslida bir rasvo joy,  
 Bu rasvo joyda nima izlaysan, hoy?  
 Deysanki: bu dunyoda omonatman, voy,  
 Lek past ketasan - so'z va ishing poyma-poy.

34

Bu dunyoi g'addorni ne qilgaysan?  
 Bu dushmani oshkorni ne qilgaysan?  
 Bas, sen na it-u, na cho'chqa, na qoplonsan,  
 Bu manzili murdorni ne qilgaysan?

35

Bu dasht aro jon agarchi sarson kechdi,  
 Bir qilni-da bilmay, necha qil yechdi.  
 Ko'nglimda agarachi ming quyosh porlar edi,  
 Bir zarra kamolga yo'l topolmay o'chdi[5]

36

Jonni so'ramang, oshiqi ul diyordir,  
 Dilni so'ramang, volai[6] ul guftordir,  
 Bu jonus dilim xazinai asrordir,  
 Lekin, ne qilay tilimni(ng) qulfi bordir.

37

Bir oshiqi pok-u, bir dili zinda qani?  
 Bir kuyganu befikri parokanda qani?  
 Kimni qarama: o'z g'amu dardiga asir,  
 Bas, ikki jahonda Tangriga banda qani?!

38

Ey dil, ma'rifat mayidan qilding no'sh,  
 Sotma ilohiy sirni, tutib og'zing bo'sh.  
 Sal narsaga tog' chashmasidek urma jo'sh,  
 Daryo bo'lasan, agar o'tirsang xomush.

39

Ey dil, bari chorang seni(ng) bechoralig-ey,  
 Bir go'shada o'ltirganing ovvoralig-ey,  
 Non senga - jigar, suving-chi - xunxoralig-ey[7],  
 Alqissa, ilojing seni(ng) bir boralig-ey.

40

Ey tolibi Haq, bechora bo'lma muncha,  
O'zni unutib, ovvora bo'lma muncha.  
Mardlar kabi o'z botinishta ayla safar,  
Ahli nazara nazzora bo'lma muncha.

41

Iqror yo'lida na bir qaroring bordir,  
Inkor safidan na chet - kanoring bordir,  
Chunki qilasan xayol ishim yengil deb,  
Ey akli qasir, uzui koring bordir...

42

Goh tonggi fig'on uchun senga qo'l beradi,  
Goh bir oh uchun tuhfani mo'l-ko'l beradi.  
Bexud bo'lismi istashimning sababi:  
Bexud qilsa, O'zi sari yo'l beradi.

43

Bas, qildi ado meni bu yoqimsiz ish -  
Yuz yo'l ila har kun o'zni o'ldirish.  
Bir juft mug'ona[8] may tila Zardushtdan,  
Yechib niqob, odamni qilay namoyish.

44

Zohid kabi tokay riyoy qilgaysan?  
May quyqasini simirki, mard bo'lgaysan.  
Qon bo'ldi jigar zuhdu munofiqlikdan,  
Ey rindi qalandar, qachon kelgaysan?

45

Tarsobacha tavbamni meni sindirdi,  
Keldi kecha - zulfini qo'limga berdi,  
Chorlab meni raqs etgali qaytdi-ketdi,  
Zunnorni qavat-qavat o'radi-bordi.

46

Boshimda na bir kibru xavo ko'rgaysan,  
Ko'nglimda na arzu iddao ko'rgaysan,  
Nuqta kabi dardu g'am yuborgil menga,  
Chin kufru ovoralikni to ko'rgaysan.

47

O'z qobig'ing ichinda tutibsani maqom,  
Ishq ichra kamol yo'q senga, ishing hali xom.  
Pok bo'lmasa har ikki jahondan ko'ngling,  
May quyqasi mayxona aro senga harom.

48

Tongda dil o'tidan bemalol, ey soqiy,  
May qaynadi-yu, bo'ldi halol, ey soqiy.  
Riyoy ila yaxshilik qilishdan afzal  
May birla qimor-da, ehtimol, ey soqiy.

49

Hasratda yoqib, jonig olar ishq dardi,  
Darmondir unga faqat qalandar durdi.

Darvesh dilidan sidq ila uchgan ohning  
Zohidga nasib bo'larmi hatto gardi?!

50

Ishtahang bo'lzin karnay, ey soqiy,  
To'lzin ichishta taomu may, ey soqiy.  
May ber, bu dil ibtidoda qon bo'lgan edi,  
Intihoda to tavba qilay, ey soqiy.

51

Tokay bu zamondan chekaman g'am, soqiy?  
Xushmasmi sanam zulfini tutsam, soqiy?  
To qo'lda shu imkon bor ekan, boy bermay,  
Zulfini tutib, qo'ynida yotsam, soqiy!

52

Bizdek hali ko'plarni tayin, ey soqiy,  
O'z komiga tortar bu zamin, ey soqiy,  
Ko'nglishta buni olma yaqin, ey soqiy,  
O'tmoqda umr - qadahni sun, ey soqiy!

53

Taqvoni desang, so'zu gudozdan qolasan,  
Kibr paydo qilib, shavqu niyozdan qolasan.  
Tegramda ko'p aylanma mening, ey zohid,  
Bu darveshu rind uchun namozdan qolasan.

54

Xohlar esang o'zni unutishni oson,  
Fonyi bo'l - orzushta yetarsan shu zamon.  
Bir lahza qalandarlik bozoriga kir,  
Qoshingda bo'lar namoyon har ikki jahon.

55

Tokay avom elni deb nuql, ey soqiy,  
Kissang og'iru diling yengil, ey soqiy,  
Tokay bu adovatu chug'ul, ey soqiy,  
O'tkinchi jahonga silta qo'l, ey soqiy.

56

Top bir sanamu makoning bo'lzin xilvat,  
Qur maysazor uzra u bilan xush suhbat.  
Bugun g'ami-yu, ertani(ng) tashvishini qo'y,  
Umr yeldek o'tar - har damini bil g'animat.

57

Yetmasmiz balki zarradek baxtga ham,  
Qamdamlar ila bir yerda bo'lmasmiz jam.  
Bu lahza nasib bo'larmi qayta yo yo'q?  
Bas, suhbatu diyordi qadrlang har dam.

58

Dil may kabi istar hum aro manzilni,  
Gul tal'ati mayet ayladi ming bulbulni,  
Ish qilgali bor ekan kuchi qo'lning to,  
Naqd ishga g'animatda uraylik qo'lni.

59

Umriga ko'ra agar kichikdir bu ko'ngil,  
 Tut mayni, g'amu dardi emasdир yengil.  
 Sarg'ish shu quyosh ostida alvon may ich,  
 Sarg'ishligini quyoshni-da darddan bil.

60

Bo'ston aro toza gul ochildi, ey do'st,  
 Qulfi dili bulbulni(ng) yechildi, ey do'st.  
 Bo'lmas kishiga mudom nasib bunday dam,  
 Kim oqil - uning qadrini bildi, ey do'st!

61

Qay kunki, ajalning qo'liga tushgaymiz,  
 Bargdek hayot daraxtidan uchgaymiz.  
 Dil shoddigi deb jahonni g'alvirga soling,  
 Yer ustidan yer ostiga to ko'chgaymiz.

62

Gar istar esayet, dil g'ami bir dam ketgay,  
 May ho'pla, ko'ngilga yetsa may, g'am ketgay.  
 Och bandini bandidan go'zallar zulfin,  
 To tan band-bandga ajralar dam yetgay...

63

Tushmish chekimizga bizning aqli nosavob,  
 Isyon ko'tarib dil, qilmish mayli sharob.  
 Kechdik oru nomusdan, g'shpt - yostig'imiz,  
 Bas, bizga makon kunji xaroboti xarob.

64

Chang o'rtanibon qilmoqda nola-figon,  
 Har nolasida, seningcha, qon hidi nihrn.  
 Nay cheksa bahor chog'ida ohu nola,  
 Deysan: taralar bu kuy go'rimdan begumon.

65

Dil dardi zahar - barchani aylaydi halok,  
 Jono, kel-u, tut daf'i uchun bodai pok.  
 Tut maysazor uzra mayni, ko'p qolgan emas -  
 To bo'lg'usi maysazor bizning-da bu xok.

66

Qo'zg'alki, hilol tun uzra tikdi chodir,  
 Tark ayladi oshufta quyosh ham oxir.  
 Keltir shamu mayu nuqlu[9] xandon o'lтир,  
 Qaytib yana kelmaydi bu tunlar - sohir[10].

67

To'ldirdi rafiklar maysazor bog'imni,  
 May birla yuvishdi dildagi dog'imni  
 Gul dardida ashkimga cho'milsin tuproq,  
 Quyanlaricha g'isht etib tuprog'imni.

68

Qo'zg'al, ishimizda bir samar bo'lg'usidir,  
 Asbobi sharob muxtar bo'lg'usidir.  
 Botmoqda umr quyoshi, bas, ayla shitob,  
 Xush qo'lda mudom boda agar bo'lg'usidir!

69

Ey dil, bu jahonda nima ko'rding - hechdir,  
 Davr qissasiga qulqoqni berding - hechdir,  
 Har yoqqa qarab yelib-yugurding - hechdir,  
 Bir go'shada oqibat o'tirding - hechdir.

70

Tut toza sharob, dilni aritsin g'amdan,  
 Forig' u fasoddan-u, emin olamdan.  
 Mahv o'lsein to maylu havo fir'avni,  
 Bo'lsein may fir'avni Fir'avnga tan.

71

Dedim: dilu jonne senga yor ayladim-ey,  
 Har ne yo'g'u borimni nisor ayladim-ey.  
 Dedi: o'zi kimsanki, qilarsan yo yo'q?  
 Men aslida seni beqaror ayladim-ey!

72

Deydi: bevafo bo'lding - shundoqmidi ahd?  
 Do'stdan judo bo'lding - shundoqmidi ahd?  
 Har kun necha bor bizdan uzoq tushding, bas,  
 Begonanamo bo'lding - shundoqmidi ahd?

73

Oshiq kishi dunyo ishidan fard bo'lgay,  
 Har ikki jahondan kechar-u, mard bo'lgay,  
 Dil misli alanga-yu, dami sard bo'lgay,  
 Oyoq uchidan boshi qadar dard bo'lgay.

74

Biz rasmu rusum xirqasini otganmiz,  
 Xirqa badaliga boshimiz sotganmiz.  
 Bizning yo'limizda har nima gov bo'lsa,  
 Jon bo'lsa-da hatto, bahridan o'tganmiz.

75

Bizmiz-u, mayu mutribu ul mushkinxol[11],  
 Hijronsiz hosil buldi ayyomi visol.  
 Turgan yerimiz yor ila firdavs misol,  
 Bu may harom ermas, O'zi qilgan-ku halol!

76

Rind ahliga biz bo'lgali esh kelganmiz,  
 Qilmoqqa safo[12], jo'shu xurush[13] kelganmiz.  
 Qo'l silta neku[14] bad, kufr ila islomga,  
 May durdini tutki, durdno'sh kelganmiz.

77

Qon bo'ldi jigar, keltir jom, ey soqiy,  
 Dunyo ishi ming hiylayu dom, ey soqiy,  
 May tut menga, umr o'tdi, o'zing ham oz-oz -  
 Ich har kuni, xullasi kalom, ey soqiy.

78

Gul chehrasida nasimi Navro'z xushdir!  
 Gulshanaro ruxsori dilafro'z xushdir!  
 Shod bo'l buguningdan-u, unut o'tganni,

O'tgan kundan ochmaganing so'z xushdir![15]

79

Tong otdi-yu, tunning etagi chok bo'ldi,  
May ich, nega ko'ngling yana g'amnok bo'ldi?  
Tonglar hali ko'p otar, qadahni sipqor,  
Bizning-chi, borar yerimiz shu xok bo'ldi...

80

Bosh og'rig'ining dafi uchun tutgil may,  
Tun bo'y ihib chiqqan edik paydar-pay.  
Biz mastu xarob bo'lib fano dayril aro,  
Dovruq solamiz xarob jahonga shunday.

81

Maxmurlarga jom to'latib, may quygil,  
Chang yangrasin-u, to'xtamasin nay, quygil.  
Jomlar bo'shasa g'am yema aslo, soqiy,  
May quyqasidan olib, payopay quygil.

82

Ochildi gul, atrofda baxrr, ey soqiy,  
Tokay qiladi zamona xor, ey soqiy.  
May jomi - qoshingda, sabzaxat yor - mahram,  
Bo'lsin senga manzil sabzazor, ey soqiy.

83

Har lahza dilim qoni farovon bo'lgay,  
Ko'zlardan oqib, misoli ummon bo'lgay.  
Tuprog'imdan ko'za qilar bo'lsa kulol,  
To'ldirsa uni suvga, to'la qon bo'lgay.

84

Ey yor, falakka yetdi zorim sensiz,  
Bir lahza dilimda yo'q qarorim sensiz.  
Kuydir meni, kel, sen - sham-u, men - parvona\*,  
Jon chiqqusи kuymasam, nigorim, sensiz.

85

Changdek mudom qilish kerak nola-xuro'sh,  
Ummon kabi ming chayqalish-u, jo'sh urish.  
So'zdan kamimiz qolmadi, ey mahramlar,  
Fursat yetdi bo'lishga endi xomush.

86

Kuydim vamingda andoq, ey sham'i Tiroz,  
Ishqingda kuyib sham' kabi, o'chgum boz.  
So'zimni qilay muxtasar, aytib bo'lmas -  
Ko'nglimni ochib, uzun tunlarga roz.

87

Na oshiqi bechoraga chora qilasan,  
Na xasta ko'ngil sari nazora qilasan.  
Chiqmaysan-u pardadan o'zing tashqariga,  
Ushshoq pardasini nega pora qilasan?

88

May bo'lsa, sharobu mohtob, ey soqiy,

May uyquni haydaydi shitob, ey soqiy.  
 Otash to'la dilga boq-u, qo'y tuproqni,  
 Suv keltir-u, yelni bil sarob, ey soqiy.

89

Bog' bo'lsa, oqar suv yana, ey sham'i Tiroz,  
 May ber-u, ushat tavbani, yangratgin soz.  
 Shod bo'lki, oqar suv bong urib aytgaydir:  
 Ketyapman oqib, orqaga qaytmasman boz.

90

Ko'rsatdi chaman ichra yuzin gul, soqiy,  
 Qayg'uda ko'rolmay uni bulbul, soqiy.  
 May quy, hali tuproqqa kirib, may bo'lamiz,  
 Bizni-da uzatishar qo'lma-qo'l, soqiy.

91

Maysa zamin uzra cho'zdi til, ey soqiy,  
 Shabnamga yuzini yuvdi gul, ey soqiy,  
 Jasmin-da latif shoxlarini ko'rsatdi,  
 Bas, tavbaga hech borarmi qo'l, ey soqiy?

92

Tokaygacha so'zing to'rtu yetgi, soqiy,  
 Gul bo'lsa nima, tikan-da netdi, soqiy?  
 Chal sozni shitob, aylama zoye', mutrib,  
 Quy bodani tez, umrimiz o'tdi, soqiy.

93

Bir qushki ajib, yulduzlar dona unga,  
 Ul ahdi azal emish jovidona unga.  
 Gar jomi jahonnamoni izlarsan, u -  
 Sandiqda nihon, ko'ksing esa xona unga.

94

Bir zotki U, mavjud unda na sen-u, na men,  
 Bilmasmiz ne sir bor bunda na sen-u, na men.  
 Parda ko'tarilsa, o'xshashin bilgaymiz  
 O'zi O'zigayu unda, na sen-u, na men.

95

Sir yetsa, o'zingdan-da uni pinhon et,  
 Bu dardi bedarmondan ayla umid.  
 Aylantir-u oyinaga bu joningni,  
 Ul oyinani sevikli jonon sari tut.

96

Gohida kurashning oldida borgaysan,  
 Goh dard elining orqasida yurgaysan.  
 So'shtiga yetish oson emas bu ishning,  
 Bu ish ulug' - mard turib bergaysan.

97

Dedim: so'rama - fano bo'libman andoq,  
 Dedi u: baqoga yetkazarmen shundoq,  
 Ya'ni ko'rasan o'zingni yo'qlik ichra,  
 Borliqni senga bag'ishlasam-da mutloq.

98

Bilmoq esang osuda yashash hikmatini,  
 Ranj yetsa, unut xafa bo'lish odatini.  
 Har ikki jahrn daryo kabi ursa-da jo'sh,  
 Har ikki jahonga sotma dil rohatini.

99

Har qaysi muammoni-da hal qilsa bo'lar,  
 Gumroh yuribon-da rahnamo bo'lsa bo'lar.  
 Bir lahzada ming yil yashash ham mumkin,  
 Bir lahzada ming joyda yo bo'lsa bo'lar.

100

Tegrangda faqat falak urarmi javlon?  
 Ko'yingda sening ikki jahon sargardon.  
 Oftobsan-u, jon ichra tutibsan oshyon,  
 Oftobni ko'ribdi kim buningdek pinhon?

101

U menga dedi: moyili e'zoz bo'lma,  
 Xorlik tila-yu, bo'lak sarafroz[16] bo'lma.  
 Soyam ekaningni hech unutma, shod bo'l,  
 Menden sira ajralma - qaro yuz bo'lma.

102

Har o'qli, kelar bo'lsa agar jonondan,  
 Jonni hadaf[17] aylaki, u o'tsin jondan.  
 Har ikki jahondan-da najot istar esang,  
 O'zdan-da yashir, so'z ochma bu paykondan.

103

Boshdan kiraman sening yo'lishta har kun,  
 Motam tutaman sening g'amingga har tun.  
 Na sen kabi yorga dil berishga jur'at,  
 Na sen kabi yordan dil uzishlik mumkin.

104

Ey mushkul o'zi hal etolmay o'tgan,  
 Yor vasliga bir lahza yetolmay o'tgan.  
 Ey suv bo'yida tashna-yu zor jon uzgan,  
 Ganj uzra gadolikdan qutulmay o'tgan.

105

Bor a'zolaring qulqoq bo'lmosg'i kerak,  
 Jon tinglash uchun mupggoq bo'lmosg'i kerak.  
 Deding: tariqat tolibi qanday bo'lgay?  
 Ko'z osmon-u, til tuproq bo'lmosg'i kerak.

106

Sevgi siriga yetish uchun javlon et,  
 Jon ichra topib joy, uni jonga bekit.  
 Boshingni yo'lida tikkaning ul sirni  
 Gar topsang, o'zingdan-da uni pinhon tut.

107

Haq tolibi qon yutib-yutib yo'l bosgay,  
 Bosh xam etib, o'zidan ketib yo'l bosgay.  
 Sen qo'y-u uzoq yo'lga qadam, hech so'rama,  
 Yo'l aytar o'zi yo'lchi netib yo'l bosgay.

107

Haq tolibi qon yutib-yutib yo'l bosgay,  
 Bosh xam etib, o'zidan ketib yo'l bosgay.  
 Sen qo'y-u uzoq yo'lga qadam, hech so'rama,  
 Yo'l aytar o'zi yo'lchi netib yo'l bosgay.

108

Yuksak tutaman bu faqru gadolikni,  
 Bergum na zamin, na ko'kka bu boylikni.  
 Sog'ligu ozodaligu lazzat - ishim,  
 Shohlikka alishmagayman tanholikni.

109

Gohida so'zimni yuz junundan derlar,  
 Gohi esa aqli zufunundan[18] derlar.  
 Oql kishilar zar ila naqsh etgaylor,  
 Oshiq kishilar bu bag'ri xundan derlar.

110

Ey turk qalandar, menga tut toza sharob,  
 Bir-ikki qadah ichib, bo'lay mastu xarob.  
 O'tkinchi jahon ne'matiga tashna bu tan -  
 Aylanmasidan tuproqqa tut mayi nob.

111

Har lahza dilim qoni farovon bo'lgay,  
 Ko'zimdan oqib-oqib, u ummon bo'lgay.  
 Gar ko'za qilishsa meni(ng) tuprog'imdan,  
 Ul ko'zaga suv solsa agar, qon bo'lgay.

112

Bu aql kamolini jununda ko'rgay,  
 Tanning asosini xoku xunda ko'rgay,  
 Bu ko'z ikki olamni ichinda ko'rgay,  
 Ustuxonu tomirni tashinda ko'rgay.

113

Ey vohki, kutilmaganda bir dard yetgay,  
 Jon tashvishi har dam jigaring qon etgay.  
 Kim bo'g'zigacha botsa bu dunyo loyiga,  
 Bor-yo'g'ini boy berib, jahondan ketgay.

114

Jonim bor ekan, falak kabi charx uraman,  
 Har lahza visol vasfida nuqta suraman.  
 Hech kim hali topmagan u narsani tilab,  
 Yo'qotmaganim narsani izlab yuraman.

115

Faryod uramiz ko'yingga to yetgaymiz,  
 Vasling - orzu, o'zgasini netgaymiz?  
 Har bir nafasimizda ming jon bordir,  
 Raqs aylab, uni senga nisor etgaymiz.

116

Behuda yashab o'tdik jahon ayvonida,  
 Un o'ldi vujud falak tegrimonida.

Ming dardu nadomatki, to ko'z ochdik -  
Ko'rdik o'zimizni shum ajal qopqonida.

118

Men bir qush edim - uchgan roz olamidan,  
Pinhon qilayin ov qarilik g'amidan,  
Bir kimsani topmadim-u Haq mahramidan,  
Qaytdim ortga qolib ko'ngil odamidan.

119

Jon chiqdi hayot zavqi nimadir bilmay,  
Tan so'ldi sira kayfu safoni qilmay.  
Tunlar bedor yor g'amini chekkan dil,  
Bir lahma quvonch manzilini etmadi tay[19].

120

Har bir nafas olganda kelar labga bu jon,  
Hayron bu tirikligimga o'zim-da chunon.  
G'am-g'ussada kechdi umrim, bir mahbub -  
Topilsa, o'tardi xush tunlar begumon.

121

Bir hid keladi xoru haqir jonomga,  
Har lahma meni tashna qilar qonimga.  
Har o'qqi, solib kamonga men otsam agar,  
Kelib tegadi o'z dili vayronimga.

122

Men ojizu xor - dilimda armon doim,  
Bechoraligim g'amini yerman doim.  
Gar mingta eshik ochilsa menga har kun,  
Halqa kabi ko'chada qolarman doim.

123

G'ofillik ishim - biror hunar yo'q menda,  
Ul ahli nazardan hech nazar yo'q menda.  
Ertayu kech ishim mening nola-figon,  
Oh, qayga boray, o'zga hunar yo'q menda.

124

Davron g'amidan dilimda ming hasrat bor,  
Orzu-tilagim ko'zini tutnish g'ubor.  
Na hamnafasim bor-u, na g'amgusor,  
Oshufta ko'ngilman-u, parishon ro'zgor.

125

Yor hajridan o'zimni qachon men tortay?  
Mushtoq bu dilu jonga yana g'am ortay.  
Bir dardki, falakni(ng) qaddini etmish xam,  
Dil qolmadi - dil dardini qanday tortay?

126

Har damda solar bu charx ko'nglimga tugun,  
Poklikni u aylar ta'qib lahma sayin.  
Bir qatra bu qon, Tangri haqi, so'yla o'zing,  
Bu hodisaga qancha chidashi mumkin?!

127

Kim ham mendek ishq ichra bechora bo'lар?  
 Ko'nglim kabi qaysi ko'ngil ovvora bo'lар?  
 Dardimni mening agarada bir zarrasini -  
 Tog' cheksa, uning-da ko'ksi ming pora bo'lар.

128

Nokas kishilardan bu dilimda g'amdir,  
 O'l sang qani, chunki suhbatni motamdir.  
 Nokas kishilar bilan behinpta tushsam,  
 Do'zax tilagum, unda uqubat kamdir.

129

Nokas ila non yesam agar, qon bo'lgay,  
 Sassiq so'zidan tab' uyi vayron bo'lgay.  
 Bir lahma yonida o'tirish bir yon-u,  
 Ul yetti jahannam o'ti bir yon bo'lgay.

130

Bechorani bir hojati bo'l maydi ravo,  
 Oshiqqa berar va'da-yu, qilmaydi vafo.  
 G'am shuki, meni tanholik go'shasida  
 Qo'ymas sira o'z g'amim ila - bu ne jafo?!

131

Dunyoil tuban nima? Sitam dargohi,  
 Har bir qadamingda ming o'liklar ohi.  
 Gar naqd esa, u kiroyi shodlik qilmas,  
 Gar favt[20] esa, taxt barchaga o'lim chohi...

132

Qay kimsa tuban dunyo izmshsh tatar,  
 Fir'avn kabi do'zax to'riga tushar.  
 Itlarga makon chunki bu murdor dunyo,  
 Dil bersa bu murdorga kim - itdan battar!

133

Daryo-ku jahon - suvda qurarlar taxtni,  
 Badbaxt kishilar shunda ko'rарlar baxtni.  
 Har zarra bu tuproq aslida bir boshdir,  
 Johil qavm o'ylamay urarlar raxtni.

134

Bilsang, bu jahon boshdan-oyoq dud bo'ladi,  
 Mayjud nima bo'lsa, u fano zud bo'ladi.  
 Nobud edi, chunki har bud asli azal,  
 Bud bo'ldimi, bas, bir kuni nobud bo'ladi.

Б†‘ Karkas - о'лимтик билан кун ко'рувчи ўртқичи куш.

Б†‘ Durd - май quyqasi, qoldig'i. Durdakash - май quyqasini ichuvchi; mayxo'r; o'ta ichuvchi. Tasavvuf adabiyotida yakrang so'fylar, malomatiyalar tushunchasida o'tgan, qo'ldan ketgan ish ma'nosida keladi.

Б†‘ Shabiston - tungi yotoq; xilvatxona; ishratxona, bazmgoh.

Б†‘ Miyno - shisha, may shishasi; oyina; may.

Б†‘ Bu ruboiy Abu Ali ibn Sinoga ham nisbat beriladi.

Б†‘ Vola - oshiq, shaydo, maftun.

This is not registered version of TotalDocConverter

Б†‘ Xunxora - bu yerda: qon ichuvchi.

Б†‘ Mug'ona may - ilohiy tajalliyot nuri va murshidi komilning qudsiy nafasiga ishora.

Б†‘ Nuql - gazak.

Б†‘ Sohir - sehrgar.

Б†‘ Mushkinxol - qora xolli ma'shuqa.

Б†‘ Safo - riyozat chekiga natijasida dilning nafs xohishlari, yomon illatlar, g'addor dunyo va Xudo yodidan bo'lak narsalardan qutulib, poklanishi.

Б†‘ Jo'shu xurush - hayajonu jazavaga tushish, zavqu tug'yon.

Б†‘ Nek - yaxshi, xayrli, xush.

Б†‘ Bu ruboiy Umar Xayyomga ham nisbat beriladi.

Б†‘ Sarafroz - yuksak, baland, mag'rur, boshi yuqori ko'tarilgan.

Б†‘ Hadaf - nishon.

Б†‘ Zufunun - ilmu hunaru fazilatlar sohibi, donishmand.

Б†‘ Tay - yurish, kezish, bosib o'tish.

Б†‘ Favt - yo'qotish, so'lidan berish; o'lim.